XORIJ OLIMLARINING OTA-ONALIK MUNOSABATLARI BORASIDA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Jonpo‘lotova Manzura Jahonovna
BuxDU tadqiqotchisi

Received: 13.10.2025
Revised: 14.10.2025
Accepted: 15.10.2025

Kalit so‘zlar:
Errikson, Z.Freyd, Uilyamson va Kampell

Annotatsiya. Sog‘lom hayot kechirish insonning jismoniy va ijtimoiy muhit bilan uyg‘un yashashiga bog‘liq. Hayotning birinchi yilidagi bolalar uchun uy va oila muhiti ularning birinchi ijtimoiy muhiti hisoblanadi. Ma’lumki, bu muhit bola uchun juda muhim va alohida ahamiyatga ega. Ushbu tezisda Xorij olimlarining ota-onalik munosabatlari borasidagi qarashlari haqida fikir yuritiladi.

Keywords:
Erikson, Z. Freud, Williamson and Campbell

Annotation. Living a healthy life depends on a person living in harmony with the physical and social environment. For children in the first year of life, the home and family environment is their first social environment. As is known, this environment is very important and has a special significance for the child. This thesis discusses the views of foreign scholars on parental relationships.

Ключевые слова:
Эриксон, З. Фрейд, Уильямсон и Кэмпбелл

Аннотация. Здоровая жизнь зависит от гармонии человека с окружающей средой. Для детей первого года жизни дом и семья являются первой социальной средой. Как известно, эта среда очень важна и имеет особое значение для ребёнка. В данной диссертации рассматриваются взгляды зарубежных учёных на родительские отношения.

Kirish. Xorij olimlarining ota-onalik munosabatlari borasidagi ilmiy-nazariy qarashlari turli davrlarda va turli sohalarda o‘rganilgan. Ota-onalik munosabatlari, o‘zgalar bilan aloqalar, oilaviy psixologiya va tarbiya jarayonlari bilan bog‘liq nazariy qarashlar ko‘p yillik tadqiqotlar va tajribalarga asoslangan.

Ulardan biri Bowlbyning “Attachment Theory” (Bog‘lanish nazariyasi)dir.

Jeyms Bowlby, ingliz psixiatri, bolalar psixologiyasi va ota-onalik munosabatlari sohasining rivojiga katta hissa qo‘shgan. U bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi hissiy bog‘lanishning bolalar rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan. Uning “Attachment Theory” (Bog‘lanish nazariyasi) ota-onaning bolaga ko‘rsatayotgan hissiy qo‘llab-quvvatlashi va munosabatlari, bolalarning

o‘zini qanday his qilishlari, muhitga qanday moslashishlari va jamiyatda qanday xulq-atvorlar namoyon bo‘lishiga ta’sir qiladi.

Bowlby nazariyasiga ko‘ra, bolalar ota-onalari bilan mustahkam va ishonchli bog‘lanishga ega bo‘lishi kerak, chunki bu ularning o‘z-o‘zini baholashini, o‘zini hurmat qilishini va boshqa insonlar bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnatishlarini ta’minlaydi. Agar bolalar ota-onalari bilan uzilishlar yoki noaniq bog‘lanishga ega bo‘lsa, bu ularning kelajakdagi munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin[1].

Uilyamson va Kampell (1985) fikricha, oila o‘smirlarning jamiyat bilan integratsiyalashuvida eng muhim komponent hisoblanadi. Chunki oila bilim, hurmat, qadriyatlar, madaniyat, xulq-atvor va odatlarni avlodlarga yetkazuvchi eng muhim qo‘rg‘ondir. Oila o‘smirga rahbarlik qiladi. Oila o‘zining ibratli xulq-atvori bilan yoshning shaxsiyati, g‘oya va dunyoqarashini shakllantiradi. Biroq, bolalar ota-onalaridan nimani o‘rganishlari qisman ularning ota-onalari qanday bo‘lishiga bog‘liq. Ko‘rinib turibdiki, ota-onalarning munosabatlari rivojlanishning barcha bosqichlarida rahbarlik va na’muna hisoblanadi. Ayniqsa, hissiy, jismoniy va ijtimoiy izchillik, rivojlanish va qo‘llab-quvvatlash kontekstda ota-ona munosabatlari eng hal qiluvchi bo‘lgan muhim davr 0-6 yosh davridir.

Munosabatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish mumkin emas, lekin munosabatlarni shaxsning qilayotgan hatti-xarakatlari bilan izohlash mumkin. Garchi kuzatilmasa-da, munosabatlar xatti-harakatlarga ko‘p jihatdan ta’sir qiladi. Munosabatlar shaxs yashayotgan muhit tomonidan shakllanadi. Tug‘ilgandan boshlab shu muhit ta’sirida bo‘lgan shaxs turli xil ta‘sirlar va tajribalar bilan o‘zining noyob shaxsiyatini yaratadi.

Freyd shaxsni rivojlantirish nuqtai nazaridan erta bolalik davridagi tajribalarning muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, har bir rivojlanish davri o‘ziga xos tanqidiy davrlarga ega. Oddiy rivojlanishni ta’minlash uchun rivojlanishning har bir bosqichida shaxsning asosiy ehtiyojlari qondirilishi kerak. Agar bu asosiy ehtiyojlar qondirilmasa, shaxsiyat rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi[2].

Freydning fikriga ko‘ra, dastlabki bosqichlarda ehtiyojlari qondirilmagan bola keyingi yoshda ba’zi g‘ayritabiiy xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkin. Bolalarning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlarining sifati ularning ehtiyojlarini qondirishga va har bir davrni yaxshi sog‘lom o‘tkazishga yordam beradi[3].

Eriksonning fikricha, inson hayotida sakkizta muhim bosqich mavjud. Har bir davrda inqiroz, mojaro bo‘ladi, uni bartaraf etish kerak. Sog‘lom shaxsga ega

[1] John Bowlby “Attachment theory is a psychological and evolutionary framework, concerning the relationships between humans”

[2] "Psixoanalizga kirish bo‘yicha ma’ruzalar" (1910),

[3] Senemoğlu N. Gelişim Öğrenme ve Öğretim, Kuramdan Uygulamaya, Pagem Akademi, Ankara, 2009.

bo‘lishda odamlar uchun bu ziddiyatlarni muvaffaqiyatli yengib o‘tish muhimdir. Inqirozlar ijtimoiy munosabatlarga asoslanadi va yuqori motivatsiyani talab qiladi[4]. Biroq, bu nazariyaga ko‘ra, agar bu inqirozlar muvaffaqiyatli bartaraf etilmasa, bola Freyd nazariyasidagi kabi o‘sha bosqichda qolib ketmaydi. Inqirozlar keyingi bosqichlarga o‘tadi va hal qilib bo‘lmaydigan muammolar paydo bo‘ladi. Ikkala nazariyada ham, sog‘lom shaxs rivojlanishi uchun e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan nuqta, ota-ona bolaning hissiy va jismoniy ehtiyojlarini yetarli darajada qondirishidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak sog‘lom hayot kechirish insonning jismoniy va ijtimoiy muhit bilan uyg‘un yashashiga bog‘liq. Hayotning birinchi yilidagi bolalar uchun uy va oila muhiti ularning birinchi ijtimoiy muhiti hisoblanadi. Ma’lumki, bu muhit bola uchun juda muhim va alohida ahamiyatga ega. Bolalarning hayotdagi ilk tajribalari, onalari va otalari tomonidan boshqariladi va bolaning keyingi hayotida ham oila a'zolari, tengdoshlari va boshqa odamlar bilan sog'lom va yaxshi munosabatlar o'rnatishi uchun imkoniyatlarni ta’minlash va rivojlantirish, ularning munosabati va ota-onalarning xatti-harakatlari bilan shakllanadi. Bolalarning tug‘ilish paytidagi ota-onalarini idrok etishi ularning boshqa odamlarni idrok etishiga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Psixoanalizga kirish bo‘yicha ma’ruzalar" (1910)
2. Senemoğlu N. Gelişim Öğrenme ve Öğretim, Kuramdan Uygulamaya, Pagem Akademi, Ankara, 2009
3. Şahin T. Çocuk Gelişimi:0-14 Yaş Çocuğun Gelişim Özellikleri, Orbilişim, İstanbul,2015
4. John Bowlby “Attachment theory is a psychological and evolutionary framework, concerning the relationships between humans”
5. Şahin T. Çocuk Gelişimi:0-14 Yaş Çocuğun Gelişim Özellikleri, Orbilişim, İstanbul,2015

[4] Şahin T. Çocuk Gelişimi:0-14 Yaş Çocuğun Gelişim Özellikleri, Orbilişim, İstanbul,2015